

## TALABALARDA EKOLOGIK XAVFSIZLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA

*Davlatova Sayyora Toshpo'latovna,  
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Muallif maqolada tirik organizmlarga ta'sir ko'rsatuvchi ekologik omillarni o'rganishda fanlar integratsiyasi masalalarini mantiqan ketma-ket, izchil bayon qilgan.*

*Kalit so'zlar: olim, xavf, abiotik, biotik, populyatsiya, optimizm, zona, oqibat, antropogen, autropogen.*

## МЕЖДИСЦИПЛИНАРНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ СТУДЕНТОВ

*Давлатова Сайюора Тошпулатовна,  
Преподаватель Термезского института агротехнологий  
и инновационного развития*

*Аннотация. Автор логически и последовательно описал интеграцию науки в изучение факторов окружающей среды, влияющих на живые организмы.*

*Ключевые слова: ученый, риск, абиотик, биотика, популяция, оптимизм, зона, следствие, антропогенный, аутропогенный.*

## INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN THE FORMATION OF ENVIRONMENTAL SAFETY CULTURE OF STUDENTS

*Davlatova Sayyora Toshpulatovna,  
Teacher of Termiz institute of Argotechnology and innovative Development*

*Annotation. The author logically and consistently described the integration of science into the study of environmental factors affecting living organisms.*

*Keywords: scientist, risk, abiotic, biotics, population, optimism, zone, consequence, anthropogenic, autropogenic.*

**Kirish:** Har bir tirik organizm o'zi yashab turgan muhitda bir vaqtning o'zida har xil ekologik omillar (fizik, kimyoviy, biologik) ta'siriga uchraydi. Ekologik zararli omillar, odatda, abiotik, biotik hamda antropogen omillarga bo'linadi. Ekologik omillar me'yordan ortib ketsa ekologik xavf tug'diradi.

Ekologik xavf - aholi salomatligi yoki atrof - muhit holatining o'rtaga statistik ko'rsatmalari og'ishida sababli bo'lgan nomaqbul vaziyat yoki atrof - muhit holatini ifodalovchi ayrim ko'rsatgichlar, alomatlar ekologik omillarning belgilangan me'yor (optimal yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan me'yor) dan chetlash.

Shunda inson va tirik jonlarga ta'sir etuvchi quyidagi xavflar paydo bo'ladi:

1. Ayrim turlarni ma'lum hududdan siqib chiqaradi va ularning geografik jihatdan tarqalishining o'zgarishiga olib keladi.

2. Har xil turlarning o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularning ko'payishi va nobud bo'lishini o'zgartiradi. Populyatsiya va biosenozlar zichligiga ta'sir qiladi.

3. Organizmlarning muhitga moslashib yashash jarayonlari xususiyat-larini izdan chiqaradi [1,96].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Ta'lim oluvchilarda ekologik bilimlarni shakllantirish, ekologik tarbiyani rivojlantirish masalalari bo'yicha Yu.Maxmudov, M.Muxliboev, X.Norbutaev, A.Abdusolomov, F.Safarov va boshqalar, fanlararo integratsiya bo'yicha U.Nishonaliev, A.Avazboev, O'.Tolipov, Sh.Sharipov, Sh.Abdurayimovlar tadqiqot ishlari olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi: Abiotik omillarning tirik organizmlarga ta'siri, abiotik omillari organizmlarga ta'sir qiladigan anorganik muhitning majmua omillari. Biz kimyoviy (atmosfera, suv, tuproq va loyqa) fizik yoki iqlim (hororat, bosim, yorug'lik, namlik, yog'in) omillarga bo'linishi mumkin. O'z tabiatiga ko'ra, tirik organizmlarga ko'rsatadigan ta'siri bo'yicha ekologik omillar xilma - xil. Abiotik omillar - bu tirik tabiat omillari. Masalan, notirik omillarda - quyosh nuri, harakat, havo namligi, havo harorati, bug'lanish.

Turli organizmlar ekologik omillarga turlicha moslashgan bo'ladi, chunki ba'zida kuchli yorug'lik va past haroratga o'rganadi. Shuning uchun ham turli muhitda uchraydigan mikroorganizmlar ekologik omillarni har xil miqdorda qabul qiladi.

Organizmning yaxshi o'sishi, rivojlanishi abiotik, omillarning (zona) sharoiti ta'sirida bo'lsa, ularning yomon holati organizmning rivojiga, populyatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Organizmning nobud bo'lish chegarasi (zonasi) ekologik omillarning haddan ziyod, ortiqlashganidan yoki ta'sir qilish kuchlarining kamligidan kelib chiqishi mumkin. Bu holat pessimum zona deb ataladi.

Har bir tirik organizmning turli ekologik omillarga nisbatan chidamlilik darajasi yoki chidash chegarasi bor. Bu chidash chegarasi (minimum va maksimum) turning ekologik optimizm rivojlanish zonasi bo'ladi. Bu omillar organizmlarga ta'sir qilishi jarayonida bir – birlarining o'rninito'ldirib borishi mumkin.

Biotik omillar muhitda uchraydigan tirik organizmlarning hayot faoliyatida bir - birlariga qiladigan ta'siri va ular o'rtasidagi munosabatlardan iborat bo'lib, bular tirik organizmga, uni o'rab turgan boshqa tirik jonzotlarga har xil ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir turlicha bo'lishi mumkin. Masalan:

Tirik organizmlar bir - biri uchun ozuqa manba (o'simliklar turli hayvonlarga ozuqa).

Bir tirik organizm tanasi boshqa organizmning yashash muhiti bo'lishi mumkin yoki parazit - xo'jayin tanasida yashab rivoj topadi.

Bir organizm ikkinchi organizmning ko'payishiga, tarqalishiga sabab bo'ladi [5,40]. Xullas biotik omillar bir - birlarini yeydi va yo'qotadi.

Tabiatda har qanday tirik jonzot o'z qobig'iga o'ralib, yashay olmaydi. Uni tabiatning ko'plab tirik vakillari o'rab olgan bo'ladi. Ularning barchasi bir - birlari bilan o'zaro ta'sirlashadi. Ekologik o'zaro ta'sirlar nihoyatda murakkab tavsifga ega bo'lib, ko'plab omillarga bog'liq hamda turli sharoitlarda har xil holatda kechadi. Shuning uchun ekologik o'zaro ta'sirlarning oqibatlarini oldindan bilib bo'lmaydi.

Autronogen omillar va ularning umumiy ta'rifi. Autronogen - antropogen odam, inson ma'nosini bildiradi. Odam "Homon sapiens" biologik turga mansub bo'lib, yer yuzida keng tarqalgan. U birinchi paydo bo'lgan davrlarida oddiy tur bo'lib, uning ta'siri biotik omillarning tarkibiy qismi bo'lgan [3,116]. Keyinchalik odamning tabiatga bo'lgan ta'siri tabora kengaygan holda kuchayib boradi. Bu esa maxsus antropogen omil sifatida ajralib chiqishiga olib keladi. Autronogen omillarga quyidagilar kiradi:

1. Insonning tabiatga biotiklar majmuasining bir qismi sifatida ta'sir qilishi. Inson mavjudot sifatida ozuqa bilan bog'liq. U birinchi, ikkinchi va uchinchi tartibli konsument. Inson bir vaqtning o'zida o'simliklar, o'simlikxo'rlar va etxo'r hayvonlar bilan ozuqlanadi.

2. Inson aql - zakovatga ega. Shu bois uning tabiatga ta'siri o'ziga xos xususiyat kasb etadi. U boshqa mavjudotlar kabi tabiatdagi ozuqalardan foydalanibgina qolmay, balki o'zi o'simlik va chorva mahsulotlarini sun'iy ravishda yetishtiradi hamda undan foydalanadi. Inson seleksiya metodlarini qo'llab, o'simlik va hayvonlar mahsuldorligini oshiradi.

3. Inson sun'iy ob'ektlar (binolar, suv omborlari, sanoat, transport vositalari, suv kanallari va boshqalar) ni yaratadi. Ular esa turli ishlab chiqarishlarni tashkil qilish hamda tabiatni o'zgartirishga olib keladi.

4. Inson tomonidan yaratilgan sanoat va turar joy binolari butun bir manzarani, ya'ni abiotik va biotik omillar majmualarini o'zgartirib yuboradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganimizda, ayni vaqtda insoniyat ekologiyaga xos mavqei biotik ta'sir bilan chegaralangan bo'lsa, endilikda, eng avvalo, uning xo'jalik faoliyatidagi mavqei ortdi. Shuningdek, insoniyat aql - zakovat doirasining kengayishi, aholining o'sishi tabiatni keng qamrovda o'zlashtirishga, xo'jalik yuritish usullarini rivojlantirishga va takomillashtirishga olib keldi.

Adabiyotlar:

1. Зверев И. Д. Экология в школьном образовании. –М.: Знание, 1988. C.96
2. Ziyomammedov B. Ekologiya va ma'naviyat. –Toshkent: Mehnat, 1997. B.104
3. Karimov Yu. Oliy ta'lim muassasalari talabalariga ekologik ta'lim berishning nazariy asoslari. –Toshkent: O'qituvchi, 1995. B.116
4. Маркович Д. Ж. Социальная экология. –М.: РУДН, 1997. Б.126
5. Maxmudov Yu. G'. Ekologiyadan ma'lumotnoma. –Toshkent: Fan, 1997. B.40
6. Turdiqulov E. O. Fizika va ekologik ta'lim. –Toshkent: O'qituvchi, 1992. B.208
7. Жўраев И. О., Фуломов М. Х. ЭКОЛОГИЯ: жиноят ва жазо. –Тошкент: Ўзбекистон, 1990.
8. Шодиметов Ю. Ш. Региональные проблемы социальной экологии. –Ташкент: Узбекистан, 1992. -110 с.